

“O‘zenergosotish” AJda xarid qilish tartib-taomillarini
tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

Nizom

MUNDARIJA

1	Kirish	3
2	1-bob. Umumiy qoidalar	3-7
3	2-bob. Elektron davlat xaridlari	7-10
4	3-bob. Tanlov o‘tkazish tartib-taomillari	10-19
5	4-bob. Elektron tanlov o‘tkazish tartib-taomillari	19-26
6	5-bob. Tender o‘tkazish tartib-taomillari	26-34
7	6-bob. Elektron tender o‘tkazish tartib-taomillari	34-43
8	7-bob. Yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari	44-48
9	8-bob. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-sonli qaroriga amal qilish	48-49
10	9-bob. Buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar reestri	49
11	10 bob. Xaridlarni rejalashtirish	49-50
12	12-bob. Shartnomalar xulosa va ijrosi	50-51
13	13-bob. Yakuniy qoidalar	51

Kirish

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘RQ-684-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 fevraldagi “Loyiha oldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3550-sonli, 2019 yil 10 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4105-sonli, 2020 yil 21 avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4812-sonli, 2021 yil 2 iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-sonli qarorlar va xarid qilish tartib-taomilini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilib, “O‘zenergosotish” AJda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avans to‘lovi — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezonini bo‘ladi;

davlat buyurtmachisi (korporativ buyurtmachi) (bundan buyon matnda Buyurtmachi yoki Korporativ buyurtmachi deb yuritiladi) — davlat xaridlarini amalga oshiruvchi “O‘zenergosotish” AJ;

davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta‘minlash jarayoni;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma — davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

davlat xaridlarining sub’ektlari — davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

dastlabki malaka tanlovi — xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishga qo‘yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib-taomili;

yagona yetkazib beruvchi — tabiiy monopoliya sub’ekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmonlarida, qarorlarida va farmoyishlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan sub’ektlar, shuningdek davlat tomonidan xarid qilinayotgan, bozorda muqobillari mavjud bo‘lmagan noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi;

tanlov — shartnomani bajarish bo‘yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g‘olib deb topiladigan xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishning turi;

tanlov taklifi — tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq ishtirokchining tanlov predmetiga nisbatan taqdim etiladigan taklifi;

lot — turli belgilari bo‘yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko‘ra) bir xil turdagi tovarlarning jamlanmasi sifatida buyurtmachi tomonidan belgilangan va alohida shartnoma bo‘yicha xarid predmetining miqdoriy qismi;

taklifni ta’minlash — buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi;

shaxsiy kabinet — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta’minlaydigan, buyurtmachi yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi;

reja-jadval — tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridining hajmlari va joylashtirish muddatlarini nazarda tutuvchi hujjat;

davlat xaridlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma — maxsus axborot portalida ro‘yxatga qo‘yilishi shart bo‘lgan, davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida buyurtmachi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasida tuziladigan bitim;

qadam o‘lchovi — narxni pasaytirish uchun auksionning boshlang‘ich narxini yoki oldingi ishtirokchi narxining foiz bilan belgilanadigan kamaytirish pul miqdori;

hisob-kitob-kliring palatasi (bundan buyon matnda HKKP deb yuritiladi) — avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta’minlovchi maxsus axborot portalining tarkibiy bo‘linmasi;

yagona yetkazib beruvchilar reestri — vakolatli organ bilan kelishilgan holda maxsus axborot portali operatori tomonidan yuritiladigan axborot resursi;

Shartnomalarning yagona reestri — davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalarning reestri;

zaxiradagi g'olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

maxsus axborot portali (bundan buyon matnda portal deb yuritiladi) — operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rilishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi;

tabiiy monopoliya sub'ekti — tabiiy monopoliya sharoitlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va/yoki realizatsiya qilish bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt (yuridik shaxs);

tender taklifi — tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq tender predmetiga nisbatan ishtirokchining taklifi;

tender — davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi;

xarid qilish tartib-taomili — davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi — qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta'sir ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi) — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

davlat xaridlarining elektron tizimi (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) — elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari sub'ektlarining o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborot va texnik vositalarning dasturiy majmui;

elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

elektron do‘kon — davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolari elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e‘lon — davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot;

g‘olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko‘ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

2. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do‘kon;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

3. Xaridlarga tayyorgarlik o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

portalda xaridlarning yillik va choraklik reja-jadvallarini joylashtirish;

portalda xaridlar o‘tkazilishi haqidagi e‘lonlarni joylashtirish;

buyurtmachilar va xarid jarayonlari ishtirokchilari (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) tomonidan xaridlarda ularning ishtirokini ta‘minlovchi avans to‘lovlarini kiritish.

4. Portalda joylashtiriladigan reja-jadval quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

xarid predmeti;

xarid o‘tkaziladigan oy;

buyurtmachining nomi va manzili;

xarid predmetini moliyalashtirish manbalari;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili), muddatlari va shartlari.

2-bob. Elektron davlat xaridlari

1-§. Elektron davlat xaridlarini o'tkazishning umumiy shartlari

5. Buyurtmachi va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga avans to'lovlarini kiritganlaridan so'ng elektron davlat xaridlariga (bundan buyon matnda elektron xaridlar deb yuritiladi) qo'yiladi.

6. Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) foydalangan holda amalga oshiradi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni (my.soliq.uz elektron hisob varaqlari va ishonchnomalari) haqiqiy deb topish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

7. Xarid qilish tartib-taomillarini elektron do'kon yoki auksion orqali amalga oshirishda korporativ buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan kiritilgan zakalat shartnoma majburiyati bajariladigan vaqtga qadar yoki shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar xatlab qo'yiladi, bundan mazkur Nizomning 8-bandida belgilangan hollar mustasno.

8. Elektron do'kon va auksion ishtirokchilarining zakalati boshqa ishtirokchilar tomonidan pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar xatlanadi.

2-§. Elektron do'kondan foydalanish

9. Elektron do'kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do'konga qo'yilgan taklifi buyurtmachilarga yuborilgan ommaviy ofertadir.

10. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunining 49-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha qiymatdagi tovarlarning;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do'kon orqali ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

11. Buyurtmachi elektron do'konda ishtirokchilarning ofertalarini o'rganish yo'li bilan o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish,

xizmat) tanlangach, xarajatlar moddasini belgilagan holda narxlar so'rovi mexanizmidan foydalanadi.

12. Davlat buyurtmachilari elektron do'konning qo'shimcha sahifasidan foydalangan holda, davlat xaridlarini hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) kesimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) o'rtasida amalga oshirishi mumkin.

Bunda, elektron do'konning qo'shimcha sahifasidan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

buyurtmachi elektron do'konda «milliy do'kon» yacheykasini tanlaydi;

elektron tizim buyurtmachi joylashgan hudud bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarning (ish bajaruvchilarning, xizmat ko'rsatuvchilarning) takliflari joylashtirilgan qo'shimcha sahifani ochadi.

«Milliy do'kon» yacheykasining «qidiruv» tugmasidan foydalanilganda elektron tizim buyurtmachi joylashgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) tomonidan yetkazib beriladigan tovarni (ishni, xizmatni) qidiradi.

Elektron do'konning qo'shimcha sahifasida xarid qilish tartib-taomili yakuniga ko'ra tovar (ish, xizmat) mavjud emasligi sababli shartnoma tuzilmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi elektron do'konning asosiy sahifasidan foydalanmasdan mustaqil ravishda tanlangan yetkazib beruvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga haqli emas.

13. Korporativ buyurtmachilar va ishtirokchilar xaridlarni elektron do'konda tartib-taomili orqali amalga oshirishdan oldin HKKPdagi shaxsiy hisobvarag'iga ishtirokchi oferta qiymatining 3 foizi miqdoridagi zakalatni joylashtiradi.

14. Xarid qilish tartib-taomili yakuniga ko'ra elektron do'konda tovar (ish, xizmat) mavjud emasligi sababli shartnoma tuzilmagan bo'lsa, buyurtmachi mustaqil ravishda tanlangan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish orqali to'g'ridan-to'g'ri xaridni amalga oshirishga haqli. Bunda ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan davlat xaridlarining summalarga oid mezonlari amal qiladi.

15. To'g'ridan-to'g'ri xarid natijasida tuzilgan shartnoma u tuzilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi mas'ul xodimi tomonidan portalga joylashtirilishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri xarid uchun javobgarlik buyurtmachining zimmasida bo'ladi.

3-§. Aukcion o'tkazish

16. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunining 52-moddasiga asosan aukcion vositasidagi

davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zaruratining mavjud emasligi;

xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion ob'ekti bo'la olmaydi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etishi kerak.

17. Buyurtmachi auksion o'tkazish haqida xaridlar reja-jadvaliga muvofiq portalga e'lon joylashtiradi.

18. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon auksion g'olibini aniqlangunga qadar kamida besh ish kun avval joylashtirilishi kerak.

19. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

buyurtmachining nomi va manzili;

auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o'tkaziladigan davr);

auksion predmetining boshlang'ich narxi;

auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);

tovarning miqdori;

tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqida talab;

tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to'g'risidagi talab;

tovarning o'ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

20. Auksion buyurtmachining e'lonida bayon etilgan talablarni inobatga olgan holda o'tkaziladi.

21. Auksion elektron tizimda boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi.

22. Agar taklif narxi buyurtmachi tomonidan berilgan boshlang'ich narxdan past va/yoki boshqa ishtirokchining taklif qilgan narxidan past bo'lsa, portal ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Auksion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng besh minutdan kam bo'lmagan vaqtda tugagan deb hisoblanadi.

Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng yana besh minutga uzaytiriladi.

Bunda, auksionning tugash muddati operatorning ish kuni va ish vaqtiga to'g'ri kelishi lozim.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar auksion g'olibi aniqlanmaguniga qadar portalda aks ettirilmaydi.

Agar auksion mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich narxdan 15 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi boshlang'ich narx va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu takliflar elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

23. Auksion tugaydigan vaqt kelganda portal auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida portal tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi portalda aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va buyurtmachining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

24. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. Buyurtmachi auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xardni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunining 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida yoki eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali amalga oshirishi mumkin.

25. Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Tanlov o'tkazish tartib-taomillari

1-§. Tanlov vositasida xaridlarni o'tkazish shartlari

26. Tanlov vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

27. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa,

xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritiladi.

28. Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

2-§. Tanlov o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

29. Buyurtmachi tanlovni o'tkazish uchun toq sonli a'zolaridan (kamida beshta kishidan) iborat xarid komissiyasini (bundan buyon matnda tanlov komissiyasi deb yuritiladi) tuzadi.

30. Tanlov komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarishi mumkin.

31. Tanlov o'tkazishda xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

32. Xarid qilish xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi buyurtmachining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

33. Xarid qilish loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda tanlov komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

34. Qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridlari o'tkazilganda tanlov komissiyasi tarkibiga buyurtmachining vakillaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zinjining" respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritiladi.

35. Tanlov komissiyasi buyurtmachining tegishli buyrug'i bilan tuziladi va tarqatib yuboriladi.

36. Tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi amalga oshiradi.

3-§. Tanlov hujjatlarini ishlab chiqish va tanlov o'tkazilishi haqida e'lon berish

37. Buyurtmachi tomonidan tanlov o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng Jamiyatning tanlov o'tkazishga taklif bilan murojaat qilgan boshqarma tomonidan tanlov hujjatlarining, shartnoma va tanlov o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

38. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi axborot bo'lishi kerak:
Tanlovni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;

tanlov o'tkaziladigan joy manzili;

ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

buyurtmachining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqada bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa va (yoki) tanlovda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotni ham o'z ichiga olishi mumkin.

39. Tanlov hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlovda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risida talab;

ishtirokchilarga tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;

tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

40. Tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida buyurtmachi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda buyurtmachi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlovning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi

mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g'olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko'ra alohida-alohida aniqlanadi.

41. Tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

42. Jamiyatning xarid komissiyasi kotibi tanlov hujjatlarini ko'rib chiqish uchun tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasiga kiritadi.

43. Tanlov komissiyasi o'z majlislarida tanlov hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonuni talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni:

takliflar qabul qilinadigan muddatlarini;

takliflarni ochish tartib-taomillarini;

takliflarni baholash mezonlarini;

taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi.

44. Tanlov hujjatlari tanlov komissiyasi tomonidan kelishilgandan so'ng tanlovni o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

45. Tanlov hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, tanlov komissiyasi tomonidan tanlov hujjatlari qayta ko'rib chiqiladi.

46. Buyurtmachi tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan tanlov hujjatlarini o'zining imzosi va muhri bilan tasdiqlaydi.

47. Tasdiqlangan tanlov hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek tanlov o'tkazish haqidagi e'lon tanlov ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n kun avval Jamiyatning Xarid komissiyasi kotibi tomonidan portalga joylashtiriladi.

48. Tanlov o'tkazish haqidagi e'lon qo'shimcha ravishda Jamiyatning rasmiy veb-saytida, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

49. Zarur hollarda buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartirish kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

50. Buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin qaror qabul qilishga haqli.

51. Tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish davomida tovarni (ishni, xizmatni) yoki uning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

52. Tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida uch ish kuniga uzaytiriladi.

53. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

54. Zarur hollarda buyurtmachi tanlov komissiyasi qarori asosida takliflarni berish muddatini uzaytirishga, shuningdek ishtirokchilarga ularning takliflarini amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin.

4-§. Tanlov takliflarini berish tartibi

55. Tanlov ishtirokchilarining takliflari e'londa va tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

56. Elektron shaklda tanlov o'tkazish chog'ida tanlov ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

57. Taklifda davlat xaridi ob'ekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

58. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

59. Tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

60. Tanlov uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

5-§. Tanlov natijalarini sarhisob qilish

61. Agar tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlov o'tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda buyurtmachi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonuni talablariga muvofiq yangi tanlov o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

62. E'londa tanlov o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

63. Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

64. Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlov o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

65. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

66. Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

67. Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan tanlov xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridagi summadan ko'p bo'lmasligi kerak. Bunda g'olib buyurtmachi tomonidan tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

6-§. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash

68. Tanlov ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlar tanlov komissiyasi yig'ilishida ochiladi.

69. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

70. E'londa tanlovni o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Tanlov ishtirokchisining vakolatli vakili konvertlarni ochish tartib-taomili chog'ida hozir bo'lishga haqli.

71. Takliflar solingan konvertlarni ochishda ularda barcha hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Tegishli hujjatlar konvertda mavjud bo'lmagan holatda, tanlov komissiyasi ushbu taklifni ko'rib chiqish va baholashga qo'yimaslikka haqli.

72. Tanlov takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni buyurtmachi tomonidan videoyozuvga tushiriladi. Konvertlarni ochish davomida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar va tijorat taklifining narxi o‘qib eshittiriladi.

73. Agar taklifni kiritgan tanlov ishtirokchisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘RQ-684-sonli Qonunida belgilangan talablarga mos kelmasa yoxud tanlov ishtirokchisining taklifi tanlov hujjatlari talablariga mos kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

74. Tanlov komissiyasi g‘olibni aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida qayd etilgan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi.

75. Tanlov hujjatlarini baholash maqsadida tanlov komissiyasi komissiya a‘zolari va ekspertlardan iborat bo‘lgan baholovchi guruh tuzishga haqli.

76. Taklif O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘RQ-684-sonli Qonuni va tanlov hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

77. Baholash paytida tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilaridan takliflari bo‘yicha tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon rasmiy ravishda yozma shaklda tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda olib boriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek narxi yuzasidan biror-bir o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

78. Tanlov taklifi tanlov hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchida qoladi.

79. Tanlov ishtirokchisining konvertini ochishda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov taklifining malakaga oid, texnik va narx qismi bo‘yicha taqqoslash o‘tkaziladi. Tanlov komissiyasining tanlov takliflarining texnik va narx qismini baholash natijalariga ko‘ra g‘olibni aniqlaydi va tanlov o‘tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

80. Tanlov hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

81. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlov bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e‘tirof etilgan zaxiradagi g‘olib aniqlanishi yoki tanlovni o‘tkazilmagan deb topishi mumkin.

82. Agar tanlov hujjatlarida tanlovning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida loti sifatida ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, tanlov komissiyasi g‘olibni tanlovning har bir loti bo‘yicha aniqlaydi.

83. Tanlov o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining har bir a‘zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh

tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

84. Tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining majlislari yuzma-yuz yoki sirdan (so'rov orqali, barchaning ishtirokisiz) o'tkazilishi mumkin. Yuzma-yuz majlislar konferensiyalar (videokonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

85. Tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining qarori komissiya a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

86. Takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash natijalari bayonnomada qayd etiladi va tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Bayonnomadan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida portalga joylashtirilishi kerak.

87. Agar ikki ish kuni ichida tanlov ishtirokchilari tomonidan tanlov o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, buyurtmachi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

88. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

89. Tanlov ishtirokchilari tomonidan tanlov o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

90. Buyurtmachi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

91. Tanlov natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

92. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tanlov takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tanlov ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko'rib chiqilgan tanlov ishtirokchilari to'g'risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tanlov ishtirokchilari haqidagi;

tanlov g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tanlov g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxslar uchun), turgan joyi (pochta manzili).

7-§. Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

93. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tanlovni bekor qilish huquqiga ega. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi portalda mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

94. Buyurtmachi tanlov bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan buyurtmachining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

95. Buyurtmachi o'tkazilgan tanlov yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida bir ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

96. G'olib bo'lgan taklifning aksepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

davlat xaridlari bekor qilinmagan bo'lsa;

g'olib bo'lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo'lsa;

xarid qilish tartib-taomili buzilmagan bo'lsa.

97. Tanlov natijalariga doir shartnoma tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

98. Buyurtmachi tomonidan tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

99. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

100. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, buyurtmachi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RBQ-684-sonli Qonuni talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

101. Tanlov natijalari to'g'risidagi axborot buyurtmachi tomonidan portalda e'lon qilinadi va buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar reestriga kiritiladi.

102. Buyurtmachi quyidagi holatlardan biri yuz bergan taqdirda taklifni ta'minlash summasi to'lanishini talab qilmaydi va ta'minlash to'g'risidagi hujjatni darhol qaytaradi yoki keyin uning qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minlashning amal qilish muddati tugashi;
davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tilmagan bo'lsa.

103. Tanlov komissiyasi xaridlarning boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4-bob. Elektron tanlov o'tkazish tartib-taomillari

1-§. Elektron tanlov vositasida xaridlarni o'tkazish shartlari va tanlov o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

104. Elektron tanlov vositasidagi xaridlarni o'tkazish shartlari mazkur Nizomning 3-bobi 1-paragrafiga muvofiq belgilanadi.

105. Buyurtmachi elektron tanlovni o'tkazish uchun toq sonli a'zolaridan (kamida besh kishidan) iborat xarid komissiyasini tuzadi.

106. Xarid komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarishi mumkin.

107. Elektron tanlov xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi buyurtmachining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqi bilan ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

108. Qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi elektron tanlov o'tkazilganda xarid komissiyasi tarkibiga buyurtmachining vakillaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zInjining» respublika loyihalashtirish instituti vakillari kiritiladi.

109. Xarid komissiyasi buyurtmachining tegishli qarori bilan tuziladi va tarqatib yuboriladi.

110. Elektron tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan Jamiyatning Xaridlar, mahalliyashtirish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish boshqarmasi xodimi tashkillashtiradi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tanlov hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlov hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini elektron tizimga kiritadi.

112. Buyurtmachi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun elektron tizimda shaxsiy kabinet ochadi.

113. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining elektron tizim tomonidan yopiq chat orqali muloqot qilish imkoniyati ta'minlanadi.

114. Elektron tizimdagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyaning har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

115. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Ishtirokchilarning xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda xarid komissiyasi a'zosining ushbu ishtirokchi bilan affillanganligi mavjud bo'lganda tizim ushbu xarid komissiyasi a'zosining ovozini mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlaydi.

116. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, elektron tanlovni o'tkazish jarayoni buyurtmachi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

117. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasi a'zosi qarshi ovoz berganda elektron bayonnomada sharh qoldirishi shart. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo'yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiya raisi ovoz berishda bosh tortishga haqli emas.

2-§. Elektron tanlov o'tkazishda tanlov hujjatlarini ishlab chiqish va elektron tanlov o'tkazilishi haqida e'lon berish

118. Buyurtmachi tomonidan elektron tanlov o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng buyurtmachining mutaxassisleri yoki elektron tanlovni tashkillashtirish va o'tkazish uchun ma'sul xodim tomonidan tanlov hujjatlari, shartnoma va elektron tanlov o'tkazish haqidagi e'lon matni ishlab chiqiladi.

119. Elektron tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;

elektron tanlov o'tkazadigan operatorning nomi va uning veb-saytiga havola;

elektron tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

buyurtmachining ishtirokchilar bilan aloqada bo'lish uchun bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan vaqt va sana;

tanlov takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Elektron tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa axborot ham bo'lishi mumkin.

120. Tanlov hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

elektron tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;

elektron tanlovda ishtirok etish uchun tanlov taklifi qaysi tilda tayyorlanishi kerakligi bo'yicha talab;

elektron tanlov ishtirokchilariga tanlov hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

agar tovarning (ishning, xizmatning) muqobil variantlariga yo'l qo'yilsa, lotni almashtirish bo'yicha muqobil takliflarni baholash tartibining tavsifi;

texnik topshiriq;

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunga muvofiq ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

121. Tanlov taklifining texnik va narx qismi bo'yicha buyurtmachining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

Tanlov hujjatlarida ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi elektron tanlovdan chetlatiladi.

Tanlov taklifining texnik qismi uchun miqdoriy ko'rsatkichlardan (malakali mutaxassislar soni, yetkazib berish muddati, ish tajribasi va boshqalar) yoki ekspert bahosidan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

Ball usulidan foydalanganda tanlov taklifining texnik qismining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining tanlov taklifi tanlov hujjatlarida belgilangan

talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

Tanlov hujjatlarida belgilangan mezonlar o'ta muhim qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bunda tanlov taklifining belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini elektron tanlovning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

Shartnoma summasi (narxi) tanlov taklifi narx qismining yagona mezonini hisoblanadi.

122. Tanlov hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

123. Buyurtmachi tanlov hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

124. Xarid komissiyasi tanlov hujjatlarini yuzma-yuz majlisda yoki masofadan turib Qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tanlov takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tanlov takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tanlov takliflari qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonlarining nisbiy qiymati;

tanlov taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

125. Elektron tanlovni o'tkazish haqida qaror tanlov hujjatlari xarid komissiyasi tomonidan kelishilganidan so'ng qabul qilinadi.

126. Tanlov hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, xarid komissiyasi tomonidan tanlov hujjatlari qayta kelishilishi kerak.

127. Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlov hujjatlarini elektron raqamli imzo bilan tasdiqlaydi.

128. Tasdiqlangan tanlov hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek elektron tanlov o'tkazish haqidagi e'lon elektron tanlov ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n kun avval buyurtmachi ya'ni Jamiyatning Xaridlar, mahalliy lashtirish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish boshqarmasi tomonidan portalga joylashtiriladi.

129. Elektron tanlov o'tkazish haqidagi e'lon qo'shimcha ravishda buyurtmachining rasmiy veb-saytida yoki ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

130. Zarur hollarda buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartirish kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

131. Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror elektron tanlovda ishtirok etish uchun tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qabul qilinishi mumkin.

Bunda ushbu elektron tanlovda tanlov takliflarini berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, elektron tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.

Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish davomida tovarni (ishni, xizmatni) yoki uning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

132. Tanlov hujjatlarida buyurtmachi har bir tovar (ish, xizmat) alohida lot sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda buyurtmachi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlovning har xil loti bo'yicha bir nechta ishtirokchi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin.

3-§. Tanlov taklifini berish

133. Tanlov takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron tanlov ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

134. Elektron tanlov ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tanlov taklifini berishga haqli.

135. Elektron tanlov ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

136. Elektron tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan tanlov takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlov taklifini chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

137. Elektron tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin so'rov yuborishga haqli.

138. Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.

139. Buyurtmachi xarid qilish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan tanlov takliflarining ta'minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, tanlov takliflari yuborilguniga qadar ishtirokchi ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Buyurtmachi bunday so'rovga darhol javob beradi.

140. Elektron tanlovda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;
soliqlar va yig'img'lar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;
o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

4-§. Elektron tanlov natijalarini sarhisob qilish

141. Elektron tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tanlov o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda buyurtmachi tanlovni ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

142. Elektron tanlov xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlov takliflarini tashkil etuvchi elektron xujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

143. Agar tanlov taklifi Qonunning va tanlov hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlov taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

144. Tanlov takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tanlov ishtirokchilaridan ularning tanlov takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

145. Tanlov taklifi tanlov hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchda qoladi.

146. Tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarga asosan baholash, shuningdek taklifning narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlari shablonlarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va ekspert mezonlarni xarid komissiyasi tasdiqlaydi.

147. Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda) tanlov taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur bandeda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

148. Tanlov takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tizimda xarid komissiyasi yig'ilishining elektron bayonnomasini tuzadi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a'zolariga yuboradi.

Xarid komissiyasi a'zolari elektron bayonnomani elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi.

149. Xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

150. Tanlov takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari elektron bayonnomada qayd etiladi va elektron tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda imzolanadi. Elektron bayonnomadan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

Bunda, bayonnomada quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tanlov takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt;

xarid komissiyasi a'zolarining va elektron tanlov ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi;

tanlov takliflari ko'rib chiqilgan elektron tanlov ishtirokchilari;

tanlov takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan elektron tanlov ishtirokchilari;

elektron tanlov g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqida ma'lumot;

elektron tanlov g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), F.I.O. (jismoniy shaxslar uchun), turgan joyi (pochta manzili).

151. Elektron tanlovning istalgan ishtirokchisi elektron bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga elektron tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

152. Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi majbur.

153. Elektron tanlov o'tkazish natijalariga ko'ra shartnoma mazkur Nizomning 3-bobi 7-paragrafiga muvofiq tartibda elektron shaklda tuziladi, tomonlarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi hamda shartnomalar reestriga kiritiladi.

5-bob. Tender o'tkazish tartib-taomillari

1-§. Tender o'tkazish shartlari

154. Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

korporativ buyurtmachilari uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

155. Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

156. Tender o'tkazish to'g'risidagi e'lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina portalga va boshqa ommaviy axborot vositalariga joylashtirishi shart.

2-§. Tenderni o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

157. Tender o'tkazish uchun buyurtmachi huzurida toq sonli (yetti kishidan kam bo'lmagan) a'zolaridan iborat xarid komissiyasi (bundan buyon matnda tender komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

158. Tender komissiyasining a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

159. Tender xo‘jalik faoliyati doirasida o‘tkazilganda tender komissiyasi buyurtmachining vakillari orasidan, zarur bo‘lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

160. Tender loyiha faoliyati doirasida o‘tkazilganda tender komissiyasi vazifalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u tender natijalari to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

161. Tender komissiyasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O‘zinjining» Respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritilishi shart.

162. Tender komissiyasi buyurtmachining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

163. Tender komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas‘ul kotibi tashkil etadi.

3-§. Tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonni joylashtirish

164. Buyurtmachi tomonidan tender o‘tkazish haqidagi qaror qabul qilinganidan keyin buyurtmachi mutaxassislari yoki uning mas‘ul shaxslari tender hujjatlari loyihasi, shartnomasi va e‘lonning matni ishlab chiqariladi.

165. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘londa quyidagi axborot bo‘lishi kerak: tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;

tender o‘tkaziladigan joy manzili;

tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

buyurtmachining ishtirokchilar bilan aloqada bo‘lish uchun bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining nomi, lavozimi va manzili;

tender hujjatlari qoidalarini tushuntirish uchun so‘rov berish shakli;

takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa axborot ham bo‘lishi mumkin.

166. Tender hujjatlarida quyidagilar bo‘lishi kerak:

tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklif qaysi tilda taqdim etilishi kerakligi bo‘yicha talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi to'g'risidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

167. Ishlab chiqilgan tender hujjatlarini loyihasi buyurtmachi tomonidan tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun Markazga yuboriladi.

168. Tender komissiyasi o'zining majlisida tender hujjatlari loyihasini O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonun talablariga muvofiqligi bo'yicha ko'rib chiqib, quyidagilarni:

takliflar qabul qilinadigan muddatlarni;

takliflarni ochish tartib-taomillarini;

takliflarni baholash mezonlarini;

taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi.

169. Tender hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo'yiladi.

170. Tender komissiyasi tomonidan tender hujjatlari loyihasi ma'qullangan holda tender o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

171. Tender hujjatlari ma'qullanmagan xollarda u qayta ishlash uchun qaytarib yuborilishi yoki tender komissiyasi majlisida qayta ishlanishi mumkin.

172. Ma'qullangan tender hujjatlarini buyurtmachi o'zining muhri va imzosi bilan tasdiqlaydi.

173. Tasdiqlangan tender hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'ttiz kun oldin va ko'pi bilan qirq besh kun oldin portalga buyurtmachi tomonidan joylashtiriladi.

174. Tender o'tkazishni amalga oshirish haqidagi e'lon qo'shimcha ravishda buyurtmachining rasmiy veb-saytida yoki o'zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

175. Zarur bo'lgan hollarda buyurtmachi tomonidan tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish haqidagi qaror qabul qilishi mumkin.

176. Tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

177. Tender hujjatiga o'zgartirish takliflar berish muddati tugayotganda kiritilgan taqdirda tender, tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran o'n kundan kam bo'lmagan muddatga uzaytirilishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa o'zgartirishlar kiritiladi.

178. Tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

179. Zarur bo'lgan hollarda buyurtmachi tomonidan takliflar berish muddati uzaytirilishi yoki tender ishtirokchilariga takliflar qabul qilinishi muddati tender komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

180. Tender hujjatlarida buyurtmachi har bir tovarni (ishni, xizmatni) xarid qilishda alohida lot sifatida e'lon qilishi mumkin. Bu holatda buyurtmachi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin.

4-§. Tenderda ishtirok etish uchun taklif berish tartibi

181. Portalda e'lon qilingan tender ishtirokchilarining takliflari e'londa belgilangan tartibda, tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

182. Tender ishtirokchilarining takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muhr qo'yilgan va ishtirokchining vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki takliflarning har bir varag'i imzolangan holda taqdim etish tavsiya etiladi.

183. Tender ishtirokchilarining takliflari e'londa belgilangan tartib asosida tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzilga muhrlangan konvertlarda (konvertning yelimlangan joyiga ishtirokchining muhri bosiladi) taqdim etiladi, unda:

alohida muhrlangan ichki konvertda texnik taklif (shu jumladan, texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi oid ma'lumotlar);

alohida muhrlangan ichki konvertda taklifning narxga oid qismi bo'lishi kerak.

184. Takliflar solingan konvert ro'yxatga olish kitobida topshiruvchi va qabul qiluvchi shaxs imzosi ostida, qabul qilingan sana va vaqti, konvertlar sonini qayd etish yo'li bilan tenderni tashkillashtirish va o'tkazishga mas'ul shaxsga taqdim etiladi. Ro'yxatga olish kitobi ip bilan tikilgan, raqamlangan va muhrlangan bo'lishi kerak.

185. Taklif bilan birga xarid ob'ekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

186. Tender ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta taklif berishga haqli.

187. Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyli va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

188. Tender ishtirokchisi takliflarni berish muddati tugaganigacha qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

189. Tenderga takliflarni qabul qilish portalda chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

190. Tender ishtirokchisi tender o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda buyurtmachiga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida buyurtmachi, agar mazkur so'rov buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni belgilangan shaklda yuborishi shart.

191. Buyurtmachi tomonidan tender o'tkazish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan takliflarning ta'minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, takliflar yuborilgunigacha qadar ishtirokchi ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Buyurtmachi bunday so'rovga darhol javob beradi.

192. Tenderda, quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

5-§. Tender natijalarini sarhisob qilish

193. Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtda xarid komissiyasi tender ishtirokchilaridan tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olgan bo'lsa, tender o'tkazilgan deb topiladi.

194. Uch yoki undan ortiq tender ishtirokchilari — mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'lgan taqdirda davlat xaridlari buyurtmachining tanloviga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

195. Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda buyurtmachi tender hujjatidagi shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

196. Tender hujjatlarining shartlari o'zgartirilmasdan takroran tender o'tkazilganda, takroran tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon takliflar qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida yigirma kun oldin buyurtmachi tomonidan portalga joylashtiriladi.

197. Tovarga (ishga, xizmatga) nisbatan baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarurati paydo bo'lganda tender komissiyasi tomonidan asoslar keltirgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

6-§. Tender ishtirokchilarining takliflarini ochish, ko'rib chiqish va baholash

198. Tender ishtirokchilarining takliflari mavjud bo'lgan konvertlarini ochish tender komissiyasi majlisida ikki bosqichda amalga oshiriladi.

199. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran oltmish kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

200. E'londa tenderni o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda tender komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni ularni baholash uchun navbatma-navbat ochadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida hozir bo'lishga haqli.

201. Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi ushbu O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonunida belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tender hujjatlari talablariga mos kelmasa, tender komissiyasi taklifni rad etadi.

202. Tender takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni buyurtmachi tomonidan videoyozuvga tushiriladi. Konvertlarni ochish davomida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar va tijorat taklifining narxi o'qib eshittiriladi.

203. Tender komissiyasi takliflarni ko'rish natijasida ularning hamma takliflari rad etilganda yoki takliflardan faqat biri talabga muvofiq kiritilgan taqdirda tender o'tkazilmagan deb topiladi.

204. Tender komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni tender hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun amalga oshiradi.

205. Tender hujjatlarini baholash maqsadida tender komissiyasi komissiya a'zolari va ekspertlardan iborat bo'lgan baholovchi guruh tuzishga haqli.

206. Agar taklif O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘RQ-684-sonli Qonuning va tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

207. Tender takliflarni baholash vaqtida tender komissiyasi tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirish berishlarini so‘rashlari mumkin. Ushbu jarayon tender tashkilotchilari orqali yozma ravishda rasmiylashtiriladi. Tushuntirish berish jarayonida berilgan taklif va narx bo‘yicha o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

208. Tender takliflari tender hujjatlarida ko‘rsatilgan muddatda o‘z kuchida qoladi.

209. Birinchi bosqichda ishtirokchilarning texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarga oid ma‘lumotlar va texnik takliflar joylashtirilgan konvert ochiladi.

210. Tender komissiyasi tomonidan ishtirokchilarning texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarga oid ma‘lumotlar o‘rganiladi va texnik qismi baholanadi. Tender komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo‘yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichi g‘oliblari aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida hozir bo‘lishga haqli.

211. Tenderning birinchi bosqichi g‘oliblari tenderning ikkinchi bosqichida qo‘yiladi.

212. Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Tender komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo‘yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g‘olibi aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

213. Tender hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

214. Tender komissiyasi tomonidan ijrochi va zaxira ijrochisi aniqlanadi yoki tender o‘tkazilmagan deb topiladi.

215. Agar tender hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) tenderning alohida loti sifatida ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, tender komissiyasi g‘olibni tenderning har bir loti bo‘yicha aniqlaydi.

216. G‘olib ovoz berish natijasida aniqlanadi. Tender komissiyasining har bir a‘zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Tender komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

217. Tender komissiyasining umumiy sonidan kelib chiqib ko'pchilikning ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

218. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi tender komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida portalda e'lon qilinadi.

219. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

220. Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

221. Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

7-§. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

222. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tenderni bekor qilish huquqiga ega. Tender bekor qilingan taqdirda buyurtmachi portalda mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

223. Buyurtmachi tender bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan tender buyurtmachining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

224. Buyurtmachi o'tkazilgan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida bir ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

225. G'olib bo'lgan taklifning aksepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

davlat xaridlari bekor qilinmagan bo'lsa;

g'olib bo'lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo'lsa;

tender qilish tartib-taomili buzilmagan bo'lsa.

226. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmasdan tuziladi

227. Tender natijalari to'g'risidagi axborot portalda e'lon qilinadi va shartnomalar reestriga kiritiladi.

228. Tender g'olibi tender shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi va tender g'olibiga ta'minot qaytarib berilmaydi. Bunda zaxira ijrochisining taklifi bo'yicha shartnoma tuzilishi yoki zaxira ijrochisi shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

229. Buyurtmachi quyidagi holatlardan biri ro'y bergan taqdirda taklifni ta'minlash summasi to'lanishini talab qilmaydi va ta'minlash to'g'risidagi hujjatni darhol qaytaradi yoki uning qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minlashning amal qilish muddati tugagan bo'lsa;

davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tilmagan bo'lsa.

230. Ikki yoki undan ortiq buyurtmachilarning xaridlar rejasiga muvofiq qo'shma tenderlar o'tkazilishi mumkin.

231. Qo'shma tenderlar bir davlat dasturi yoki loyihalar portfelida ishtirok etayotgan buyurtmachilar doirasida shakllantirilishi shart.

232. Tender ishtirokchilari tender shartlari va tenderni o'tkazish tartib-taomillari buzilgan holatlarda tender natijalari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

233. Tender komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

234. Tender komissiyasining o'z vakolati doirasida qabul qiladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'RQ-684-sonli Qonuning 20-moddasiga asosan barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

6-bob. Elektron tender o'tkazish tartib-taomillari

1-§. Elektron tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari va xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

235. Elektron tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari mazkur Nizomning 4-bobi 1-paragrafiga muvofiq belgilanadi.

236. Elektron tender o'tkazish uchun buyurtmachi huzurida toq sonli (yetti kishidan kam bo'lmagan) a'zolaridan iborat xarid komissiyasi tuziladi.

237. Xarid komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

238. Elektron tender xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi buyurtmachining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

239. Elektron tender loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi vazifalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u elektron tender natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

240. Xarid komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zInjining» respublika loyihalashtirish instituti vakillari kiritilishi shart.

241. Xarid komissiyasi buyurtmachining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

242. Elektron tender o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkillashtiradi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tender hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tasdiqlangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini elektron tizimda joylashtiradi.

243. Buyurtmachi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun elektron tizimda shaxsiy kabinet ochadi.

244. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining elektron tizim tomonidan yopiq chat orqali muloqot qilish imkoniyati ta'minlanadi.

245. Elektron tizimdagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyaning har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

246. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Ishtirokchilarning xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda xarid komissiyasi a'zolarining ushbu ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lganda tizim ushbu xarid komissiyasi a'zosining ovozini mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlaydi.

247. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, elektron tenderni o'tkazish jarayoni buyurtmachi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

248. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasi a'zosi qarshi ovoz berganda elektron bayonnomada sharh qoldirishi shart. Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Xarid komissiya raisi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas.

2-§. Elektron tender o'tkazishda tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

249. Buyurtmachi tomonidan elektron tender o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng buyurtmachining mutaxassisleri yoki elektron tenderni tashkillashtirish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tender hujjatlarining, shartnoma va elektron tender o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

250. Elektron tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;

elektron tender o'tkazadigan operatorning nomi va uning veb-saytiga havola;

elektron tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

buyurtmachining ishtirokchilar bilan aloqada bo'lish uchun bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

tender takliflarini berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Elektron tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa axborot ham bo'lishi mumkin.

251. Tender hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:
elektron tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;
shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;
elektron tenderda ishtirok etish uchun tender taklif qaysi tilda tayyorlanishi kerakligi bo'yicha talab;
elektron tender ishtirokchisi tender taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi to'g'risidagi axborot;
elektron tender ishtirokchilariga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;
texnik topshiriq;
Qonunga muvofiq ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usullari, mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

Tender hujjatlarida elektron tender ishtirokchilari malakasiga oid talablar nazarda tutilishi mumkin.

252. Tender taklifining texnik va narx qismi bo'yicha buyurtmachining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

Tender hujjatlarida ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi elektron tenderdan chetlatiladi.

Tender taklifining texnik qismi uchun miqdoriy ko'rsatkichlardan (malakali mutaxassislar soni, yetkazib berish muddati, ish tajribasi va boshqalar) yoki ekspert bahosidan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

Ball usulidan foydalanganda tender taklifining texnik qismining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining taklifi tender hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

Tender hujjatlarida belgilangan mezonlar o'ta muhim qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bunda tender taklifining belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini elektron tenderning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

Shartnoma summasi (narxi) tender taklifi narx qismining yagona mezoni hisoblanadi.

253. Tender hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

254. Buyurtmachi tender hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

255. Xarid komissiyasi o‘zining yuzma-yuz majlisida yoki masofadan turib tender hujjatlari loyihasini Qonun talablariga muvofiqligi bo‘yicha ko‘rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonini bo‘yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta‘minlash hajmi va shakli.

256. Tender hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo‘yiladi.

257. Xarid komissiyasi tomonidan tender hujjatlari loyihasi ma‘qullangan holda elektron tender o‘tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

258. Tender hujjatlari ma‘qullanmagan hollarda ular qayta ishlash uchun qaytarib yuborilishi yoki xarid komissiyasi majlisida qayta ishlanishi mumkin.

259. Ishlab chiqilgan tender hujjatlari loyihasi buyurtmachi tomonidan tender hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish uchun Markazga yuboriladi.

260. Ma‘qullangan tender hujjatlarini buyurtmachi elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlaydi.

261. Tasdiqlangan tender hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek elektron tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon elektron tender ishtirokchilaridan tender takliflarini qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘ttiz kun oldin va ko‘pi bilan qirq besh kun oldin portalga buyurtmachi tomonidan joylashtiriladi.

262. Elektron tender o‘tkazishni amalga oshirish haqidagi e‘lon qo‘shimcha ravishda buyurtmachining rasmiy veb-saytida yoki o‘zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

263. Tender hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qaror elektron tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qabul qilinishi mumkin.

Bunda ushbu elektron tenderda tender hujjatiga o‘zgartirish takliflar berish muddati tugayotganda kiritilgan taqdirda elektron tender, tender hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilgan sanadan e‘tiboran o‘n kundan kam bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, agar e‘londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, elektron tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘longa o‘zgartirishlar kiritiladi.

264. Tender hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish jarayonida tovarni (ishni, xizmatni) o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

265. Zarur bo‘lgan hollarda buyurtmachi tomonidan tender takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron tender ishtirokchilariga tender takliflari qabul

qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

266. Tender hujjatlarida buyurtmachi har bir tovar (ish, xizmat) alohida lot sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bu holatda buyurtmachi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin.

3-§. Elektron tenderda ishtirok etish uchun taklif berish

267. Elektron tender o'tkazilganda ishtirokchilar tender takliflarini elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tenderni o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

268. Ishtirokchining tender taklifini tashkil etuvchi elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan formatlarda taqdim etiladi. Xar bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

269. Tender taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tender takliflari elektron tizimda shablonlarga muvofiq hujjatlarni birlashtirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar birlashtirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

270. Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron tender ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

271. Elektron tender ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tender taklifini berishga haqli.

272. Elektron tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

273. Elektron tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

274. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim tender takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

275. Tender takliflari tender hujjatlarida ko'rsatilgan muddatda o'z kuchida qoladi.

276. Elektron tender ishtirokchisi tender hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin so'rov yuborishga haqli.

277. Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.

278. Buyurtmachi elektron tender o'tkazish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan tender takliflarining ta'minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, tender takliflari yuborilguniga qadar ishtirokchi ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Buyurtmachi bunday so'rovga darhol javob beradi.

279. Elektron tenderda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

solislar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

4-§. Elektron tender natijalarini sarhisob qilish

280. Uch yoki undan ortiq elektron tender ishtirokchilari — mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'lgan taqdirda davlat xaridlari buyurtmachining tanloviga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

281. Elektron tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tanlov o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda buyurtmachi tenderni ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

282. Elektron tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilmagan maydonlar mavjud

bo'lsa yoki birlashtirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Birlashtirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

283. Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:
tender taklifining tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash;

tender taklifining texnik qismini baholash;

tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

284. Agar tender taklifi Qonunning va tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tender taklifi tender hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

285. Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

286. Elektron tender g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan tender takliflarini baholash tender hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi. Buyurtmachi ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi.

287. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

288. Tender taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarga asosan baholash, shuningdek taklifning narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Tender hujjatlari shablonlarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va ekspert mezonlarni xarid komissiyasi tasdiqlaydi.

289. Miqdor ko'rsatkichlariga asoslangan mezonlarni baholashda:
tender hujjatlarida ko'rsatkichlarning eng kam va eng ko'p qiymatlari belgilanishi mumkin;

miqdor ko'rsatkichlari eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlari oralig'ida bo'lgan ishtirokchilar uchun ball koeffitsienti uning miqdor ko'rsatkichining eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlarining farqiga bo'lgan nisbatini aniqlash orqali hisoblanadi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq eng kam hisobga olinadigan qiymatidan kam bo'lsa, ishtirokchiga eng kam ball qo'yiladi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatidan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatidan qay darajada yuqoriligidan qat'i nazar unga ushbu mezon bo'yicha eng yuqori ball beriladi;

miqdoriy yoki ekspert mezonini baholash elektron tizim tomonidan ballni ushbu mezonning hisobga olinadigan qiymatiga ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

290. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xossalari va xususiyatlaridan kelib chiqib, xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakaga, ishonchliligiga, tajribaga va obro'ga, shuningdek inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilash huquqiga ega.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

291. Tender hujjatlarida elektron tender ishtirokchisining malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron tizimga biriktirilishi nazarda tutilishi mumkin. Buyurtmachi tender hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar bo'yicha ishtirokchining malakasini baholashga yoki tender hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

292. Tender hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tender taklifining texnik va narx qisimlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda). Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, tender taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g'olib deb topiladi;

tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng

past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur badda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

293. Xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

294. Tender takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiya yig'ilishining elektron bayonnomalarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a'zolariga yo'llaydi.

Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishining elektron bayonnomalarini elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

295. Tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risida;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va elektron tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqida;

tender takliflari ko'rib chiqilgan elektron tender ishtirokchilari to'g'risida;

tender takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan elektron tender ishtirokchilari haqida;

elektron tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqida;

elektron tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

296. Elektron tenderning istalgan ishtirokchisi tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga elektron tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

297. Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

298. Elektron tender o'tkazish natijalariga ko'ra shartnoma tuzish mazkur Nizomning 4-bobi 7-paragrafiga muvofiq tartibga solinadi. Bunda shartnoma elektron hujjat shaklida tuziladi, tomonlarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va operator tomonidan shartnomalar reestriga kiritiladi.

7-bob. Yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari

1-§. Yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish asoslari

299. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘RQ-684 Qonunning 72-moddasi ikkinchi qismiga asosan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridlari quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

bozorda muqobillari bo‘lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish mumkin bo‘lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

madaniy qimmatliklarni olish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosidagi davlat xaridlari;

tabiiy monopoliya sub’ekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

o‘z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlari tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan ishlarga yoki ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo‘lishi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha davlat xaridi.

Vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridlarini amalga oshirishning boshqa hollari ham belgilanishi mumkin.

2-§. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish

300. Yagona yetkazib beruvchilardan xaridni amalga oshirish uchun buyurtmachilar yagona yetkazib beruvchilar reestridan (bundan buyon matnda Reestr deb yuritiladi) foydalanadi.

301. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo‘lgan taqdirda, u va buyurtmachi o‘rtasida portalda ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi.

302. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda yozma shaklda tuziladi va unda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

shartnoma predmeti;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) soni, sifati, assortimenti;

yetkazib beriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish muddati;

hisob-kitob tartibi;
tomonlarning majburiyatlari;
shartnomaviy majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlarning javobgarligi;
nizolarni hal etish tartibi;
tomonlarning rekvizitlari;
shartnoma tuzilgan sana va joy;
xaridlar to‘g‘risidagi shartnomalar uchun qonun hujjatlari bilan belgilangan yoki tomonlardan birining arizasiga muvofiq kelishuvga erishilishi lozim bo‘lgan boshqa muhim shartlar.

303. Yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshirilgan xarid natijasida tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi ma’lumot, shartnoma tuzilgan kundan uch kunlik muddatdan kechiktirmasdan portalga Jamiyatning Xaridlar, mahalliy lashtirish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish boshqarmasi tomonidan joylashtirilishi lozim.

3-§. Yagona yetkazib beruvchilar reestrini yuritish

304. Reestr, qog‘oz va elektron shaklda yagona yetkazib beruvchilar va ularning davlat xaridlari uchun ruxsat etilgan tovarlari (ishlari, xizmatlari) haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan axborot resursi hisoblanib, unda yagona yetkazib beruvchi haqidagi ma’lumotlar yig‘iladi, saqlanadi, qayta ishlanadi.

305. Reestrda kontragent mavjud bo‘lmasa, buyurtmachi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomani tuzishga haqli emas.

306. Reestrni yuritish operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda axborot resursiga yagona yetkazib beruvchilar haqidagi ma’lumotlarni kiritish, ushbu ma’lumotlarni yangilash, yagona buyurtmachi haqidagi ma’lumotlari reestrda chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

307. Reestr operator tomonidan portalga joylashtiriladi va undan hamma erkin foydalanishi mumkin.

308. Reestrda yagona yetkazib beruvchilar haqidagi ma’lumotlarni kiritish uchun operator quyidagi ma’lumotlardan foydalanadi:

tabiiy monopoliya sub’ektlarining davlat reestridan;
vakolat doirasida faqat shu organlar yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlari tomonidan bajariladigan ishlar yoki xizmatlarni ko‘rsatadigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari haqidagi ma’lumotlar;
tariflari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan tovarlar (ishlar, xizmatlarning) tariflari haqida ma’lumotlar;
vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar.

309. Operator yagona yetkazib beruvchilar haqida vakolatli organ tomonidan yuborilgan hamda mazkur Nizom 304-bandi 2 — 4-xatboshilaridagi kelishilgan ma'lumotlarni bir ish kuni mobaynida Reestruga kiritadi.

310. Vakolatli organ operatorga Reestruga yagona yetkazib beruvchilar sifatida kiritish uchun yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib boradi.

311. Vakolatli organ tahlil o'tkazish va tegishli ma'lumotlarni yig'ish orqali quyidagilarni aniqlaydi:

bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat reestruga kiritilgan monopolist-korxonalarini;

tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy qimmatliklarning egalarini, shuningdek, ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini.

312. Mazkur Nizomning 304-bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar Reestruga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi ariza bilan vakolatli organga murojaat etishlari mumkin.

313. Reestruga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

xo'jalik yurituvchi sub'ekt haqida — yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatiga olinganligi haqidagi guvohnomaning sanasi va ro'yxatga olish raqami, jismoniy shaxs haqida — shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi tegishli ma'lumotlar;

nomi, texnik xususiyatlari, narxi ko'rsatilgan ishlab chiqarilayotgan (yetkazib berilayotgan) bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida ma'lumot;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat reestruda mavjudligi haqida;

madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyati haqida;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda mavjud bo'lgan litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlar haqida;

boshqa ma'lumotlar.

314. Vakolatli organ quyidagi asoslar bo'yicha Reestrda kiritish haqidagi arizani rad etishi mumkin:

mazkur Nizomning 308-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni (ma'lumotlarni, axborotlarni) to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etish;

taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri va buzilgan ma'lumotlarni aniqlanganligi; hujjatlar arizachini nomidan harakat qilish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan taqdim etilgan bo'lsa.

315. Vakolatli organ, zarur hollarda:

a) bozorda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muqobili mavjudligini aniqlash uchun Markazga va vakolatli davlat organlariga:

bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar haqidagi ma'lumotlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat reestrda kiritilgan monopolist-korxonalar haqidagi ma'lumotlarni;

b) vakolatli davlat organlari, ixtisoslashgan tashkilotlar yoxud ekspertlarga madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga egaligini, shuningdek ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini aniqlash uchun madaniy qimmatliklarning egalari haqidagi ma'lumotlarni yuboradi.

316. Markaz uch ish kuni mobaynida resurslarning yagona milliy ma'lumotnomasidagi ma'lumotlar asosida, zarur bo'lganda esa — boshqa ochiq manbalardagi ma'lumotlardan foydalangan holda taqdim etilgan tovarni (ishni, xizmatni) bozorda muqobili mavjud emasligi haqidagi axborotni taqdim etadi.

317. Vakolatli organ Markaz, vakolatli davlat organlari, ixtisoslashgan tashkilotlar yoxud ekspertlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida Reestrda kiritish haqidagi arizani qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi.

318. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda vakolatli organ xo'jalik yurituvchi sub'ektni yoki madaniy qimmatliklarning egasini yagona yetkazib beruvchi sifatida Reestrda kiritish uchun operatorga yuboradi.

319. Markaz har bir chorakning yakunlari bo'yicha bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) o'xshashi tovarlar (ishlar, xizmatlar) mavjudligi yuzasidan tahlil o'tkazadi.

320. Agar tahlil natijalari bo'yicha avval bozorda muqobili bo'lmagan deb topilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) o'xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) aniqlansa, Markaz tegishli axborotni vakolatli organga taqdim etadi.

321. Vakolatli organ Markazdan axborotni olgan paytdan boshlab bir kunlik muddat ichida Operatorga xo‘jalik yurituvchi sub’ektni Reestrda chiqarish lozimligi haqida xabar yuboradi.

322. Operator vakolatli organdan xabarnomani olgandan so‘ng xo‘jalik yurituvchi sub’ektni Reestrda chiqaradi.

323. Reestrda o‘zgartirish kiritish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

tabiiy monopoliya sub’ektini Tabiiy monopoliya sub’ektlarining davlat reestrda chiqarilishi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ekt Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning reestrda chiqarilishi;

vakolatli organning xo‘jalik yurituvchi sub’ektni Reestrda chiqarish haqidagi xabarnomasi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan vakolat doirasida faqat shu organlar yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlari tomonidan ishlar bajarishni yoki xizmatlar ko‘rsatilishini to‘xtatilishi;

sudning qonuniy kuchga kirgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektni bankrot deb topish haqidagi hal qiluv qarori;

qonunchilikka muvofiq boshqa holatlar.

**8-bob. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishda O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi “O‘zbekiston
Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonunini amalga oshirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-sonli qaroriga
amal qilish**

324. Jamiyatda shartnoma imzolash uchun boshqaruv raisi tomonidan berilgan ishonchnomaga asosan vakolatga ega shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-sonli qarorining 1-ilovasi “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati”da ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish huquqiga ega hisoblanadilar.

325. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori 1-ilovasi asosida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan tuzilgan shartnomalar 3 (uch) kunlik muddatda mazkur nizomning 1-2 ilovasida ko‘rsatilgan namuna shaklida Jamiyatning Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga taqdim etadi.

326. Tuzilgan shartnomalar Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi tomonidan 2 (ikki) kunlik muddatda davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

327. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar rasmiylashtirishda, narxlar mutanosibligiga e‘tibor qaratilishi va eng yaxshi takliflarni tanlab olish prinsipiga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

9-bob. Buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar reestri

328. Shartnomalar reestri operator tomonidan portaldan foydalangan holda yuritiladi.

329. Shartnomalar reestri elektron do‘kon, auksion, tanlov, tender, elektron tanlov, elektron tender natijalari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar, shu jumladan, yagona yetkazib beruvchidan amalga oshirilgan xaridlar yakunlari bo‘yicha shakllantiriladi.

330. Elektron do‘kon va auksion, shuningdek, elektron tanlov va elektron tender orqali tuzilgan shartnomalar portalda ro‘yxatga olinganidan so‘ng avtomatik rejimda shartnomalar reestriga kiritiladi.

331. Buyurtmachi tomonidan tanlov, tender, yagona yetkazib beruvchidan xarid amalga oshirilishi, shuningdek boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar natijasida tuzilgan shartnomalar haqidagi ma‘lumotlar elektron tizimga kiritilgandan so‘ng elektron tizim tomonidan avtomatik rejimda axborot shakllantiriladi va shartnomalar reestriga kiritiladi.

332. Shartnomalar reestriga xaridlar natijasida tuzilgan shartnomalar haqidagi ma‘lumotlar kiritiladi.

333. Shartnomalar reestridagi axborot to‘lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiq bo‘lishi kerak.

334. Maxsus axborot portali va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi o‘rtasidagi ma‘lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reestri bo‘yicha onlayn ma‘lumot almashinuvi amalga oshiriladi.

335. Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot shartnomalar reestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar uchun haq to‘lanmaydi.

10-bob. Xaridlarni rejalashtirish

336. Xaridlarni rejalashtirish uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun bildirigilarni taqdim etiladi.

337. Xaridlarni rejalashtirish “rejalashtirish davri” taqvim yili bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatini va berilgan vazifalarni tahlil qilish asosida talablarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

338. Ushbu ehtiyoj "O'zenergosotish" AJ, boshqarmalari, bo‘lim, xizmatlari va hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilangan yo‘nalishda ta‘minlanadi.

339. Arizalar tegishliligi bo‘yicha "O'zenergosotish" AJning boshqaruv raisi imzosi bilan va tegishli boshqarmalar, bo‘limlar va xizmatlar tomonidan texnik topshiriqlari bilan to‘liq Xarid komissiyasi kotibiga taqdim etiladi.

11-bob. Shartnomadan xulosa va ijrosi

340. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish quyidagi bosqichlardan iborat:

- Keyingi yilga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish;
- Ehtiyojlar ro‘yxatidan kerakli tovar va xizmatlarga buyurtmanomalarni shakllantirish;
- Takliflarni tahlil qilish va xarid usulini aniqlash
- Shartnomalar tuzish;
- Tuzilgan shartnomalarni moliyalashtirishni ochish;
- Tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish.

341. Shartnoma rasmiylashtirilgach, Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga to‘lov uchun aloqa xati bilan, barcha hujjatlarni shartnoma shartlariga muvofiq moliyalashtirish uchun topshiradi.

342. To‘lov to‘g‘risida rozilik Boshqaruv raisi tomonidan rezolyusiya bilan Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga belgilangan shaklda uzatiladi.

343. Shartnoma (kontrakt) o‘z vaqtida bajarilishi va tovar yetkazilishi yoki ish bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (my.soliq.uz elektron hisob varaqlari va ishonchnomalari) jamlab shartnoma bo‘yicha hisob-kitob qilinadi.

344. Zarur bo‘lganda shartnomalar hududlar bo‘yicha jamiyat boshqaruv raisi hududiy bo‘linmalarga taqdim etgan tegishli ishonchnoma asosida rasmiylashtiriladi.

345. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomalari yetkazib beruvchi (pudratchi, ijrochi) va Buyurtmachining vakolatli vakili tomonidan qabul tugagan kundan boshlab uch kundan kechiktirmay imzolanadi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish-topshirish dalolatnomalari ikki nusxada, har biri tomonlar uchun bittadan imzolanadi.

346. Shartnoma lozim darajada bajarilmagan taqdirda, yetkazib berilgan tovarlarini, bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni qabul qilish paytida

aniqlangan nomuvofiqliklar qayd etiladi. Agar tomonlar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish natijalaridan norozi bo'lsa, tegishli kelishmovchiliklar qayd etiladi.

347. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori doirasida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar rasmiylashtirishda, narxlar mutanosibligiga e'tibor qaratilishi va eng yaxshi takliflarni tanlab olish prinsipiga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

12-bob. Yakuniy qoidalar

348. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish va shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

349. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv uning muhim shartlarini o'zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin.

350. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan xodimlar ichki lokal hujjatlarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.